

TA'LIM JARAYONIDA IQTISODCHINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASI RIVOJLANISH DARAJALARI

Rahimova Kutlibika Ergashevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

E-mail: kutlibika89@icloud.com

Аннотация

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida iqtisodchi mutaxassislarning boshqaruv kompetensiyasi rivojlanish darajalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida boshqaruv kompetensiyasining beshta asosiy darajasi - boshlang'ich, rivojlanayotgan, kompetent, proficient va ekspert bosqichlari aniqlanib, ularning mazmuni hamda ta'lim jarayonida shakllanish xususiyatlari tahlil qilingan. Olingan natijalar amaliy va nazariy bilimlarning o'zaro integratsiyasi boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Raqamli kompetensiyalar, amaliy tajriba va shaxsiy motivatsiyaning mazkur jarayondagi ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot yakunida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarning boshqaruv kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Калит so'zlar: boshqaruv kompetensiyasi, iqtisodiy ta'lim, kompetensiya darajalari, kasbiy rivojlanish, ta'lim modeli, oliy ta'lim, iqtisodchi.

Аннотация

В данной статье исследуются уровни развития управленческих компетенций экономистов в процессе образования. В ходе исследования были выявлены пять основных уровней управленческой компетенции - начальный, развивающийся, компетентный, опытный и экспертный - а также рассмотрены механизмы их проявления в образовательной системе. Результаты исследования показывают, что интеграция практических и теоретических знаний в современной системе экономического образования является ключевым фактором формирования управленческой компетентности. В статье даны практические рекомендации по внедрению компетентностно-ориентированной модели образования для системы высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: управленческая компетенция, экономическое образование, уровни компетенции, профессиональное развитие, модель обучения, высшее образование, экономист.

Abstract

This article examines the levels of managerial competency development among economists in the educational process. The study identifies five key levels of managerial competence - novice, developing, competent, proficient, and expert - and analyses the mechanisms of their manifestation within the educational system. Research results indicate that the integration of practical and theoretical knowledge in modern economic education is a critical factor in shaping managerial competence. The article provides practical recommendations for implementing a competency-based

education model within the higher education system of Uzbekistan, with particular emphasis on bridging academic learning and real-world management challenges.

Keywords: managerial competency, economic education, competency levels, professional development, learning model, higher education, economist.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va globallashtirish jarayonlari iqtisodchi mutaxassislariga qo‘yilayotgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda iqtisodchi nafaqat nazariy bilimlar sohibi, balki amaliy boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, tashkiliy jarayonlarni samarali boshqara oladigan va strategik qarorlar qabul qila oladigan mutaxassis sifatida talqin etiladi [1].

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan, 2017-2021 yillardagi harakatlar strategiyasi va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida oliy ta‘lim sifatini oshirish, kompetensiyaga asoslangan ta‘limni joriy etish masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan [2]. Ushbu maqsadga erishishda iqtisodchi mutaxassislarining boshqaruv kompetensiyasini shakllantirish va uning rivojlanish darajalarini aniqlash alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahon ilmiy adabiyotida kompetensiya tushunchasi turlicha talqin etiladi. Xususan, D.C. McClelland kompetensiyani ish samaradorligini bashorat qiluvchi individual xususiyat sifatida tariflab, an‘anaviy IQ testlari va akademik baholash tizimlarining kasbiy muvaffaqiyatni aniqlashda yetarli emasligini asoslab bergan [3]. Keyinchalik R. Boyatzis o‘zining fundamental tadqiqotlarida boshqaruv kompetensiyasini tizimli o‘rganib, menejerning samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalar klasterlarini aniqlagan [4].

O‘zbekiston ta‘lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar 2000-yillarning o‘rtasidan joriy etila boshlangan bo‘lsa-da, iqtisodchilarning boshqaruv kompetensiyasi rivojlanish darajalarini aniq metodologik asosda tadqiq etish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida yozilgan bo‘lib, u quyidagi ilmiy muammoni ko‘rib chiqadi: ta‘lim jarayonida iqtisodchi mutaxassisning boshqaruv kompetensiyasi qanday darajalar orqali rivojlanadi va ushbu darajalarni aniqlashning eng samarali metodologik usullari nimalardan iborat?

Maqolaning maqsadi - ta‘lim jarayonida iqtisodchi mutaxassisning boshqaruv kompetensiyasi rivojlanish darajalarini nazariy asoslash, empirik tadqiqot asosida darajalar tizimini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: boshqaruv kompetensiyasi tushunchasining ilmiy asoslarini tahlil qilish; ta‘lim jarayonida kompetensiya rivojlanish darajalarini aniqlash mezonini va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish; O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida iqtisodchilar boshqaruv kompetensiyasini shakllantirishning hozirgi ahvolini baholash; kompetensiyaga asoslangan ta‘lim modelini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruv kompetensiyasi masalasi turli ilmiy yoʻnalishlarda, jumladan, tashkiliy psixologiya, boshqaruv nazariyasi, taʼlim va kasbiy rivojlanish sohalarida keng oʻrganilgan. Ushbu boʻlimda asosiy nazariy yondashuvlar va ularning taʼlim kontekstidagi ahamiyati koʻrib chiqiladi.

Lyle M. Spencer Jr. va Signe M. Spencer kompetensiyani “ish natijalarini belgilovchi asosiy xususiyat” sifatida taʼriflaydi va kompetensiyaning beshta turini ajratadi: motivlar, xususiyatlar, oʻz-oʻzini idrok etish, bilim va koʻnikmalar [5]. Bu klassifikatsiya boshqaruv kompetensiyasini oʻrganishda keng qoʻllaniladi. Bloom taksonomiyasi va uning qayta ishlangan versiyasi taʼlim natijalari va bilish darajalarini tizimlashtirish uchun muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi [6]. Ushbu taksonomiyada bilish, tushunish, qoʻllash, tahlil qilish, baholash va yaratish darajalari ketma-ket keltirilgan boʻlib, u boshqaruv kompetensiyasini oʻlchashda ham muvaffaqiyatli qoʻllaniladi. Dreyfus modeli esa boshqaruv kompetensiyasini oʻrganishda yanada operatsional asosni taqdim etadi. Ushbu model mutaxassisning beshta rivojlanish bosqichini - novice, advanced beginner, competent, proficient va expert - ajratib koʻrsatib, har bir bosqichdagi bilim va koʻnikmalar xususiyatlarini batafsil tahlil qiladi [7]. Mazkur tadqiqotda Dreyfus modeli Oʻzbekiston taʼlim kontekstiga moslashtirilgan.

Yevropa taʼlim boʻyicha Bologna jarayoni va Tuning loyihasi iqtisodiy taʼlimda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etishda muhim rol oʻynadi. Ushbu yondashuv boʻyicha iqtisodchi mutaxassislar uchun umumiy va ixtisoslashtirilgan kompetensiyalar roʻyxati ishlab chiqildi. OECD maʼlumotlariga koʻra, zamonaviy iqtisodchi uchun analitik fikrlash, maʼlumotlar bilan ishlash, loyihalarni boshqarish va jamoaviy hamkorlik koʻnikmalari eng muhim boshqaruv kompetensiyalari hisoblanadi [8]. Hecklau va boshqalar oʻtkazgan tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, toʻrtinchi sanoat inqilobi sharoitida iqtisodchilarning raqamli kompetensiyalari tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Raqamli tahlil, sunʼiy intellektdan foydalanish va katta maʼlumotlar (Big Data) bilan ishlash koʻnikmalari boshqaruv kompetensiyasining ajralmas qismiga aylanib qolmoqda [9].

1-jadval.

Boshqaruv kompetensiyasi boʻyicha adabiyotlar tahlili¹

Yil	Tadqiqot yoʻnalishi	Asosiy xulosa	Muallif
2019	Kompetensiya modellari	Bosqichli rivojlanish modeli asosli	Spencer & Spencer
2020	Taʼlim va kasbiy tayyorgarlik	Amaliy tajriba hal qiluvchi omil	Boyatzis R.
2021	Iqtisodiy boshqaruv samaradorligi	Raqamli kompetensiyalar zarurligi oshdi	Hecklau et al.
2022	Oʻzbekiston iqtisodiyoti konteksti	Milliy standartlar takomillashtirish lozim	Toshmatov B.A.
2023	Raqamli iqtisodiyot kompetensiyalari	Gibrid koʻnikmalar muhimligi ortdi	Karimov I.N.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekistonlik olimlaridan Toshmatov B.A. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy muammolarini o‘rganib, milliy ta’lim standartlarini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish zarurligi to‘g‘risida xulosa chiqargan [10]. Karimov I.N. esa raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini o‘rgangan va gibrid ko‘nikmalar - an’anaviy iqtisodiy bilimlar va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish - muhimligini asoslab bergan [11]. 1-jadvalda ushbu sohadagi asosiy tadqiqotlarning qisqacha tahlili keltirilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini ta’lim jarayonida iqtisodchining boshqaruv kompetensiyasi rivojlanish darajalari bo‘yicha tadqiqot usullari kompleks yondashuvni talab qiladi. Hujjatlarni tahlil qilish, statistik ma’lumotlarni baholash, tanlanma kuzatuv, suhbatlar o‘tkazish va keys stadiylarini o‘rganish orqali muammolar aniqlandi va ularni hal qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Bu usullar orqali O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim sifatini baholash samaradorligini yaxshilash uchun asosiy strategiyalar belgilab berildi. Ma’lumotlarni tahlil qilishda miqdoriy ma’lumotlar SPSS 26.0 statistik dasturi yordamida tahlil qilindi. Tahlilda ta’rifiy statistika, faktorli tahlil, klaster tahlili va dispersiya tahlili (ANOVA) usullaridan foydalanildi. Sifatiy ma’lumotlar tematik tahlil usuli bilan qayta ishlandi. Tadqiqotning ishonchliligi (reliability) Cronbach alfa koeffitsiyenti yordamida tekshirildi ($\alpha = 0.87$), bu esa so‘rovnomaning yuqori darajada ichki izchilligini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida iqtisodchi mutaxassislarning boshqaruv kompetensiyasi rivojlanishining besh darajali modeli ishlab chiqildi. Ushbu model Dreyfus modelining O‘zbekiston ta’lim kontekstiga moslashtirilgan varianti bo‘lib, har bir daraja o‘ziga xos bilim, ko‘nikma va munosabat xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

2-jadval

Iqtisodchi boshqaruv kompetensiyasi rivojlanish darajalari modeli¹

Daraja	Bilim xususiyatlari	Ko‘nikma xususiyatlari	Muddati
I - Boshlang‘ich	Nazariy asoslar, terminologiya	Standart vazifalarni bajarish	1-2 yil
II - Rivojlanayotgan	Amaliy bilim, integratsiya	Murakkab masalalarni hal etish	2-4 yil
III - Kompetent	Tizimli tahlil, prognoz	Mustaqil strategiya ishlab chiqish	4-7 yil
IV - Proficient	Ekspert bilim, nazorat	Jarayonlarni optimallashtirish	7-12 yil
V - Expert	Strategik vizion, innovatsiya	Tizim yaratish, yo‘naltirish	12-yildan ortiq

¹ Muallif tomonidan Dreyfus va Spencer modellari asosida ishlab chiqilgan.

So‘rovnoma natijalari asosida iqtisodchilarning yetti asosiy boshqaruv kompetensiyasi bo‘yicha rivojlanish darajalari aniqlandi. Quyidagi 3-jadvalda ushbu ko‘rsatkichlar keltirilgan:

3-jadval

Boshqaruv kompetensiyalari rivojlanish darajalari¹ (n=312)

Kompetensiya turi	Boshlang‘ich daraja, foizda	O‘rta daraja, foizda	Yuqori daraja, foizda
Strategik rejalashtiruv	20	55	25
Moliyaviy tahlil	15	60	25
Jamoani boshqarish	30	50	20
Kommunikatsiya	25	45	30
Innovatsion fikrlash	35	40	25
Qaror qabul qilish	18	52	30

3-jadval ma‘lumotlari tahlili bir qator muhim xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Avvalo, respondentlarning asosiy qismi (50-60 foizi) boshqaruv kompetensiyalarining o‘rta darajasiga mansub ekanligi aniqlangan. Mazkur holat ta‘lim jarayonida nazariy bilimlar yetarli darajada shakllanayotganini, biroq ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, strategik rejalashtirish yo‘nalishi bo‘yicha respondentlarning 20 foizi boshlang‘ich darajada ekanligi iqtisodiy ta‘lim tizimida strategik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yanada ko‘proq e‘tibor qaratish lozimligini anglatadi.

Faktorli tahlil natijalari boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi to‘rtta asosiy omil guruhini aniqlash imkonini berdi. Birinchi omil - ta‘lim dasturining sifati bo‘lib, uning faktor yuklamasi 0,78 ni tashkil etdi. Ushbu omil o‘quv dasturlarining mazmuni, professor-o‘qituvchilar malakasi hamda o‘quv-uslubiy materiallarning zamonaviylik darajasini qamrab oladi. Ikkinchi omil - amaliy tajriba (faktor yuklamasi 0,74) bo‘lib, amaliyot o‘tash, real loyihalarda ishtirok etish va ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Natijalar ushbu omil boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Uchinchi omil - shaxsiy motivatsiya va faollik (faktor yuklamasi 0,69) bo‘lib, talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi, mustaqil ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishi hamda qo‘shimcha bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojini ifodalaydi. To‘rtinchi omil - ijtimoiy-iqtisodiy muhit (faktor yuklamasi 0,61) bo‘lib, oilaviy muhit, iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq ijtimoiy sharoitlar va hayotiy tajribaning ta‘sirini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning boshqaruv kompetensiyalari rivojlanish darajasi ayrim Yevropa mamlakatlari ko‘rsatkichlariga nisbatan ma‘lum darajada ortda qolayotganini ko‘rsatdi. Xususan, Finlyandiya va Germaniya tajribalarida keng qo‘llaniladigan amaliy ta‘lim mexanizmlari hamda oliy ta‘lim va sanoat o‘rtasidagi

¹ Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida tuzilgan.

samarali hamkorlik tizimi mamlakatimizda hali to'liq shakllanmagan. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va amaliy yo'naltirilgan yondashuvlarni keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ushbu yo'nalishda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Dispersiya tahlili (ANOVA) natijalari amaliyot o'tagan talabalar boshqaruv kompetensiyalari darajasi amaliyot o'tmagan talabalar ko'rsatkichlariga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi ($F=24,7$; $p<0,001$). Mazkur natija amaliy ta'limning boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi hal qiluvchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi hamda ta'lim dasturlarida amaliy mashg'ulotlar va ish beruvchilar bilan hamkorlik elementlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim jarayonida iqtisodchi mutaxassislarning boshqaruv kompetensiyasi rivojlanish darajalarini tadqiq etish natijalari mazkur yo'nalishda ijobiy tendensiyalar mavjudligini hamda ularni yanada rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Birinchidan, iqtisodchining boshqaruv kompetensiyasi uzluksiz rivojlanish jarayoniga ega bo'lib, u boshlang'ich, rivojlanayotgan, kompetent, proficient va ekspert bosqichlari orqali izchil shakllanadi. Har bir bosqichda bilim, ko'nikma va kasbiy munosabatlarning takomillashib borishi iqtisodchi mutaxassisning professional salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarning aksariyati (55-60 foizi) boshqaruv kompetensiyalarining o'rta darajasiga erishganligini ko'rsatdi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, yuqori darajadagi kompetensiyaga ega mutaxassislar ulushini yanada oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud.

Uchinchidan, amaliy tajriba va akademik bilimlarning uyg'unligi boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali omili sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari amaliyot o'tagan talabalar boshqaruv kompetensiyasi ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natijalarga ega ekanligini tasdiqladi. Bu esa amaliy ta'lim elementlarini kengaytirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, raqamli kompetensiyalar va an'anaviy iqtisodiy bilimlarning integratsiyasi zamonaviy iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashning istiqbolli yo'nalishi sifatida namoyon bo'ldi. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish iqtisodchilarning zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalari uchun:

- o'quv dasturlarida amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish;
- sanoat korxonalarini va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda dual ta'lim elementlarini keng joriy etish;

- boshqaruv simulyatsiyalari, biznes-o‘yinlar va keys-stadiy metodlaridan samarali foydalanish;
- iqtisodiyot yo‘nalishlari bo‘yicha kompetensiyalar matritsasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.
Ikkinchidan, davlat siyosati darajasida:
 - iqtisodchi mutaxassislar uchun kompetensiyaga asoslangan milliy kasbiy standartlarni yanada takomillashtirish;
 - Davlat ta‘lim standartlariga boshqaruv kompetensiyalarini baholash mezonlarini kiritish;
 - ish beruvchilarning ta‘lim jarayonidagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish.
- Uchinchidan, talabalar uchun:
 - boshqaruv kompetensiyalarini muntazam ravishda o‘z-o‘zini baholash amaliyotini yo‘lga qo‘yish;
 - ACCA, CFA kabi xalqaro professional sertifikatlash dasturlarida faol ishtirok etish;
 - Mentor-talaba hamkorlik dasturlarida qatnashish;
 - raqamli iqtisodiyot va zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bo‘yicha qo‘shimcha kurs va treninglarda malaka oshirish.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida iqtisodchi mutaxassislarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha mustahkam asoslar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, amaliy tajriba va raqamli texnologiyalarning keng integratsiyasi kelgusida yuqori malakali, raqobatbardosh va zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalariga ega iqtisodchi kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637-son “Oliy ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. McClelland D.C. Testing for competence rather than for intelligence // American Psychologist. - 1973. - Vol. 28 (1). - P. 1-14.
4. Boyatzis R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. - New York: John Wiley & Sons, 1982. - 308 p.
5. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. - New York: John Wiley & Sons, 1993. - 372 p.
6. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy. - New York: Longman, 2001. - 352 p.
7. Dreyfus H.L., Dreyfus S.E. Mind over Machine: The Power of Human Intuition and Expertise in the Era of the Computer. - New York: The Free Press, 1986. - 231 p.
8. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. - Paris: OECD Publishing, 2019. - 24 p.

9. Hecklau F., Galeitzke M., Flachs S., Kohl H. Holistic Approach for Human Resource Management in Industry 4.0 // *Procedia CIRP*. - 2021. - Vol. 54. - P. 1-6.
10. Toshmatov B.A. O‘zbekiston oliy ta’limida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy muammolari // *Iqtisodiyot va ta’lim*. - 2022. - № 3. - B. 45-58.
11. Karimov I.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish // *O‘zbekiston iqtisodiyoti*. - 2023. - № 2. - B. 112-128.
12. Norqo‘ziyev A.X., Mahmudov F.T. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim: nazariya va amaliyot. - Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021. - 186 b.
13. Hutmacher W. Key Competencies for Europe // *Report of the Symposium Berne, Switzerland. Council for Cultural Co-operation*. - 1996. - Strasbourg, 1997.
14. Delamare Le Deist F., Winterton J. What Is Competence? // *Human Resource Development International*. - 2005. - Vol. 8, № 1. - P. 27-46.
15. World Bank. *Uzbekistan: Modernizing Tertiary Education*. - Washington D.C.: World Bank Group, 2021. - 112 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**